

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2022**

**2-son**

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

TAHRIRIYAT		
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida zamonaviy ta'limga klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultanov	17	Ilk boshlang'ich ta'limga pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limga innovatsiyalar va ularning tahlili
TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI		
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'limga metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G.Nabiiev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'limga muktabalarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT		
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI		
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'limga jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limga integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limga zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'limga – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarda sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'limga tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

S.Akbarova	71	Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texlogiyalarni qo'llash
Y.Sultanov	76	3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish
<b>MILLIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI</b>		
B.Narzullayeva	80	Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni
S.Muxammadiyeva	83	Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish
<b>TA'LIMDA MENEJMENT</b>		
F.Jumanova	87	Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruvi kompetentligini rivojlantirish mazmuni
<b>HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA</b>		
M.Jo'raxo'jayev	90	Imkoniyati cheklangan bolalar uuda yakka tartibdagi ta'lmini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari
<b>MAKTABGACHA TA'LIM</b>		
G.Nazirova	95	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakkantirish yo'llari
V.Ganiyeva	99	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati
S.Achilova	103	Maktabgacha yoshdagagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari
D.Xalkuziyeva	107	Maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari
G.Mo'minova	110	Maktabgacha yoshdagagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati
Sh.Ibragimova	114	Maktabgacha yoshdagagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalari
F.Abdug'opirova	119	Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida
<b>PSIXOLOGIYA</b>		
N.Abdullayeva	124	O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirilishi
<b>QIYOSIY PEDAGOGIKA</b>		
K.Abrorxonova	127	O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari
<b>СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ</b>		
Г. Тожибоева	131	Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников
<b>МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ</b>		
A. Magrupov	138	Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя

Fotima JUMANOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,

“Pedagogika va menejment” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

## YANGI O'ZBEKISTONDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni rivojlantirish mazmuni, metodlari, shakllari va innovatsion ta'lim haqida bo'lib, maqolada ijtimoiy tajribani didaktik loyi-halash muammosi barkamol inson shaxsi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** Didaktika, loyihalash, innovatsiya, ta'lim, boshqaruv jarayonlari.

Статья посвящена содержанию, методам и формам развития инновационных компетенций у будущих учителей и инновационного образования, в статье анализируется проблема дидактического проектирования социального опыта с точки зрения компетентной человеческой личности.

**Ключевые слова.** Дидактика, дизайн, инновации, образование, процессы управления.

The article is devoted to the content, methods and forms of development of innovative competencies among future and innovative education, the article analyzes the problem of didactic design of social experience from the point of view of a competent human personality.

**Key words.** Didactics, design, innovation, education, management processes.

**O'**zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar o'qituvchilarning Yangi O'zbekiston jamiyatidagi nufuzi va mavqeini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ularning o'z kasbiga mehri va sadoqatini mustahkamlab, ishlayotgan ta'lim dargohida kasbiy faoliyat bilan shug'ullanib, jamiyat ardog'ida bo'lismiga sharoit yaratadi. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy maqsadi ma'nnaviy boy va barkamol, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni"da ta'kidlanganidek, "Uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlарини oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" kabi masalalar bosh maqsadimiz bo'lmog'i lozim<sup>1</sup>.

Uzlusiz ta'limda barkamol inson shaxsi va ijtimoiy tajriba tizimida didaktik loyihalash muammosini tahlil qilish quyidagi qiyinchiliklarni oldindan payqash hamda ajratishga imkon beradi: pedagogika fanida haligacha barkamol inson tushunchasi atroficha tahlil qilinib, uning mazmuni va hajmi aniqlanganicha yo'q; qolaversa, barkamol inson shax-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

sini tarbiyalashda ijtimoiy tajribaning ahamiyati, ularning o'zaro aloqadorligi pedagogik jihatdan o'rganilgan emas. Muammoning yana bir tomoni: "barkamol inson shaxsi" va "har tomonlama garmonik rivojlangan shaxs" tushunchalari bir narsami? Agar bu ikki tushuncha alohida-alohida hodisalar sifatida qaralsa, unda ularning o'xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat ekanligini aniqlashdan iborat.

Yangi ijtimoiy munosabatlarning innovatsion xarakterdag'i ta'l'm dasturlarida aks etishi pedagoglar, o'quvchilar hamda ularning ota-onalari o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Innovatsion xarakterga ega ta'l'm dasturlarni amaliyotga tatbiq etishda pedagogik jamoa va ota-onalarning ta'l'm tizimi boshqaruv organlari, davlat va mahalliy tashkilotlari, shuningdek, ijtimoiy va tijorat yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi muassasalarning birdek faol ishtiroi ta'minlanadi.

Ta'l'm muassasasini boshqarish uning faoliyatini ta'l'm xizmati ko'rsatuvchilar – ishlab chiqaruvchilar (ilmiy pedagogik, pedagog kadrlar) va talabgorlar (o'qitimlayotganlar, ularning ota-onalari, xodimlarini buyurtma qiluvchilar) tomonidan nazorat qilish hisoblanadi. O'z-o'zini nazorat qilish natijalari oliy ta'l'm muassasasini rivojlantirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik muloqot, ta'l'm-tarbiya jarayonini boshqarishning ta'sirchan usuli bo'lib, ishontirish, asoslash va muntazam nazorat qilishdan iborat. Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi ta'l'miy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Uning samaradorligi esa o'qituvchining tanlagan metodi va talabalarni yo'naltirishiga bog'liq. Muntazam nazorat "qayta aloqa" vazifasini bajaradi va quyidagi maqsadga qaratiladi:

- o'qituvchining rejalahtirilgan o'quv maqsadlarini o'rganishdagi natijalarini belgilash va baholash;
- ta'l'm natijalari pastligi sababini aniqlash;
- ta'l'm-tarbiya jarayonining borishini baholash va uni tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, o'qituvchi ta'l'm sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o'zini-o'zi nazorat qila olishi, shuningdek, tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo'lib, bular o'qituvchining boshqaruv kompetentliliginu ifodalaydi.

O'qituvchining boshqaruv kompetentligi uning ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-tehnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Boshqaruv faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchining boshqaruv faoliyati jarayonining holati va samaradorligini aniqlash mumkin.

Tadqiqotlarda o'qituvchi shaxsiy kompetentliliginining asosiy yo'nalishlariga boshqaruvda tizimli yondashuvni tatbiq etish; boshqaruv funktsiyalari, vositalari, metodlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati va ularni amalga oshirish usullarini; rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanishni; muktab va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asoslarini; me'yoriy hujjatlar bilan ishslash va muktab faoliyatining reglamenti asoslarini; ta'l'm menejmenti asoslarini; axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanishni; ta'l'm-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalarini; davlat ta'l'm standartlari va ularni amaliyotga tatbiq etish mezonlarini; ta'l'm muassasasi faoliyati monitoringini yuritishni; axborotlar to'plash metodlari va ulardan foydalanishni zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi ko'rsatiladi.

---

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentiligini ikki tizim, ya'ni bilishi zarur bo'lgan tushunchalar va o'zlashtirishi zarur bo'lgan ko'nikmalar orqali ifodalanayotganini, aniqrog'i o'qituvchida shakllanishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar orqali tavsiflanayotganini inobatga olib, ta'lif muassasasida hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish, pedagog xodimlarni kasbiy va shaxsiy jihatdan rivojlantirish, ma'naviy boyitish hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan qulay ta'limiylarini barqarorlashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, o'qituvchi kasbiy kompetentiliqining quyidagi asosiy komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'z faoliyati va ta'lif muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi refleksiv ko'nikmalar;
- o'z faoliyati va o'zaro munosabatlardan jarayonidagi xatti-harakatlarining natijalari hamda tarbiyaviy munosabatlardan jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'rish ko'nikmalar;
- boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda subyektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- boshqaruv jarayonlarida mavjud sun'iy to'siq va qarama-qarshiliklar jamoadagi ongli intizomga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish ko'nikmasi;
- hamkorlikda faoliyat ko'rsatish va vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi;
- muloqotga oson kirishish ko'nikmasi;

Barkamol inson shaxsi va ijtimoiy tajriba tizimida o'rganiladigan muammoning dolzarb, ammo o'ta qiyinligini hisobga olib, o'z tadqiqotimizda mantiqiylikdan tarixiylikka va aksincha, tarixiylikdan mantiqiylikka o'tish tamoyillariga rioya qildik. Binobarin, avvalo, barkamol inson shaxsi to'g'risidagi eng so'nggi fikrlarga to'xtalgan holda, o'z fikrimini "har tomonlama garmonik rivojlangan shaxs" tushunchasi bilan taqqoslasmaymiz. Shu yo'l bilan ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratamiz. Keyin barkamol inson shaxsi va ijtimoiy tajriba o'rtasidagi tutash tamoyillarni belgilaymiz. Bu, o'z navbatida, didaktik loyihalashning barkamol inson shaxsini tarbiyalash ehtiyojlariga mosligi xususida fikr yuritishimizga imkoniyat yaratadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. Топоровский В.П. Развитие региональной системы оценки качества профессионального образования // Развитие профессионального образования: новое качество: сборник научных статей / под.науч. ред. С.В. Тарасова. Гатчина: Изд-во ГИЭФПТ, 2016. – С. 123-133.
3. МакаровА.И.Модель педагогического процесса: факторы психологии понимания и возникновения смыслов // Человек и образование. – 2014. № 1 (38). – С. 79-84.
4. To'xtaxo'jayeva M.X. Pedagogika. – T., O'qituvchi, 2008-y.